



Alimov Sardor Komil o'g'li,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bo'limi boshlig'i,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim*

OILAVIY NIZOLARNI SUDGACHA HAL QILISHDA OILAVIY MEDIATSIYA INSTITUTINI QO'LLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oilaviy nizolarni sudgacha hal qilishda oilaviy mediatsiya institutini qo'llash bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlar, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Finlyandiya, Germaniya, Fransiya, Avstraliya davlatlarining tajribalari va ularni O'zbekistonda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar haqida so'z boradi.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрен опыт передовых зарубежных стран, в частности, США, Финляндии, Германии, Франции и Австралии, и его применение в Узбекистане, по использованию институтов семейной медиации при разрешении семейных споров до в суде обсуждаются предложения и рекомендации.*

Annotation. *This article examines the experience of advanced foreign countries, in particular the USA, Finland, Germany, France and Australia, and its application in Uzbekistan, on the use of family mediation institutions in resolving family disputes before the court, proposals and recommendations are discussed.*

Tayanch so'zlar: *mediatsiya, oilaviy mediatsiya, sud mediatsiyasi, nodavlat mediatorlik institutlari.*

Ключевые слова: *медиация, семейная медиация, судебная медиация, неправительственные медиационные институты.*

Keywords: *mediation, family mediation, judicial mediation, non-governmental mediation institutions.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo bo'yicha ijtimoiy munosabatlardagi keskinlik holatida o'zaro murosaga kelish institutini, nizolarni bartaraf etishning muqobil (alternativ) usullarini, xususan, mediatorlik institutini qo'llash amaliyoti keng tarqalmoqda. Mediatsiyaning oilaviy-huquqiy munosabatlarni bartaraf etishga yo'nalgan oilaviy mediatsiya shakli ham jahonning qator mamlakatlarida keng amaliyotga qo'llanib kelinmoqda. Ayniqsa, kuchli sud tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari shakllangan AQSh, Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Fransiya, Avstraliya va boshqa mamlakatlardagi mediativ kelishuv shakllari orqali oilaviy munosabatlarda mediatsiyaning roli naqadar ortib borayotganini anglash mumkin.

Maqsad va uni asoslash. Mediatsiyaning zamonaviy shakli XX asrning ikkinchi yarmida, birinchi navbatda, anglo-sakson huquqi mamlakatlarida, jumladan, AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniyada rivojlana boshlagan va asta-sekinlik bilan Yevropa davlatlarida tarqala boshlagan. Amerikada 1947-yilda AQShda Federal mediatsiya xizmati tashkil etilgan. Mediatsiya keyinchalik oilaviy va qo'shnilar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda keng qo'llana boshlagan. Oilaviy mediatsiya AQShda qonuniy ravishda tan olinadi va ko'plab shtatlarda oilaviy huquq ishlarida nizoni hal qilishning muqobil shakli sifatida qo'llanadi.

Finlyandiya, Fransiya va Germaniyada ham mediatsiya tizimi mamlakatdagi mavjud huquqiy tizimga moslashtirilgan bo'lib, oilaviy nizolarni hal qilishda keng foydalaniladi. Har bir davlatda oilaviy mediatsiyaning o'ziga xos jihatlari va qonuniy asoslari mavjud. Umuman olganda, mediatsiya jarayoni xalqaro tajribaga asoslanib rivojlantirilgan va har bir mamlakatda oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishda muhim vositaga aylangan. Mediatsiyaning oilaviy munosabatlarda qo'llanishi bilan bog'liq xorijiy tajribani o'rganishda, dastavval, aynan mana shu mintaqalardagi davlatlarning tajribasi tahlil etilishi maqsadga muvofiq.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. XX asr boshlarida Amerika iqtisodiyotida mojarolar (konflikt)ning yangi shakllari paydo bo'la boshladi, xususan, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keldi. Bunday mojarolarni hal qilish maqsadida, AQSh hukumati Mehnat vazirligidan xolis va betaraf vositachi sifatida foydalanishni tavsiya etadi va bu kelishmovchiliklarga chek qo'yildi. 1947-yilda bunday vazifalarni bajarish uchun maxsus federal organ, AQSh Federal mediatsiya xizmati tashkil etildi va u bugunga qadar faoliyat ko'rsatib kelmoqda¹. Ana shu mojarolar sabab, "mediatsiya" atamasi birinchi marotaba ishlatila boshlagan.

Mediatsiyaning zamonaviy shakli XX asrning ikkinchi yarmida, birinchi navbatda, anglo-sakson huquqi mamlakatlarida, jumladan AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniyada rivojlana boshlagan va asta-sekinlik bilan Yevropa davlatlarida tarqala boshlagan. Amerikada 1947-yilda AQShda Federal mediatsiya xizmati tashkil etilgan. Mediatsiya keyinchalik oilaviy va qo'shnilar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda keng qo'llana boshlagan.

¹ A Timeline of Events in Modern American Labor Relations// <https://www.fmcs.gov/aboutus/our-history/>

**Keyinchalik
1960-yillarning
oxirlarida oilaviy,
qo'shnilar
o'rtasidagi va
nochor oilalardagi
nizolarni hal
qilishga qaratilgan
faoliyatni amalga
oshiruvchi
alohida nodavlat
tashkilotlari paydo
bo'lgan.**

Keyinchalik 1960-yillarning oxirlarida oilaviy, qo'shnilar o'rtasidagi va nochor oilalardagi nizolarni hal qilishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiruvchi alohida nodavlat tashkilotlari paydo bo'lgan. Bu tashkilotlar tomonidan mediatsiyani o'tkazishdan maqsad emotsional va moliyaviy jihatdan davlat sudlariga murojaat etishni xohlamagan shaxslarga mediatsiya xizmatlarini ko'rsatish hisoblangan.

AQShda oilaviy mediatsiya amaliyoti samarali yo'lga qo'yilgan. Misol uchun 2019-yilning kuzida FMK (Family mediation council) 122 nafar oilaviy mediator bilan suhbat o'tkazdi, ular olti oy davomida 2161 ta ish bo'yicha oilaviy mediatsiya o'tkazdi. Aniqlanishicha, mediatsiyada ishtirok etganlar 70% dan ortig'ida to'liq yoki qisman kelishuvga erishgan, 50% holatda to'liq yozma kelishuvga erishilgan, qolgan 20% esa ayrim yoki barcha masalalar bo'yicha mediativ bitim tuzilgan².

Amerika Qo'shma Shtatlarida oilaviy mediatsiya qonun tomonidan tan olinadi, hukumat tomonidan keng qo'llanadi va rag'batlantiriladi. Xalqaro oilaviy mediatsiya AQShda qo'llaniladigan mediatsiyaning alohida shakli bo'lmasa-da, xalqaro oilaviy mediatsiyaga ixtisoslashgan ekspert mediatorlar mavjud. AQShda mediatsiya turli shtatlarda oilaviy huquq ishlarida keng qo'llanadi. AQShda oilaviy mediatsiyaga oid qonunchilik shtatlarga qarab farq qiladi, chunki mamlakatda oilaviy huquqiy masalalar birinchi navbatda shtat darajasida tartibga solinadi. Shu sababli oilaviy mediatsiyani alohida tartibga soluvchi yagona federal qonunlar to'plami mavjud emas. Buning o'rniga har bir shtatning oilaviy huquq va mediatsiya bo'yicha o'z qonunlari va qoidalari mavjud. Biroq, ko'plab shtatlarda mavjud bo'lgan oilaviy sudlarning mediatsiyaga yo'naltirishi, oilaviy mediatorlarni sertifikatlash, mediativ amaliyotning maxfiyligi va tomonlarning ixtiyoriy, vijdonan ishtirok etishi, oilaviy ajralishda mulkiy masalalarni mediatsiya orqali hal qilish kabi umumiy jihatlar mavjud³.

Ko'pgina shtatlarda oilaviy sudlar jarayonni boshlashdan oldin tomonlarni mediatsiyada ishtirok etishga undaydi yoki talab qiladi. Buning uchun ko'plab mediativ xizmatlarni taklif qiluvchi tashkilotlar faoliyat yuritadi. Xususan,

– Ontario Association for Family Mediation (OAFM) tashkilotining asosiy vazifasi mediatorlarni tayyorlash, o'qitish, akkreditatsiya qilish

² Family Mediation Survey 2019 - Results // <https://www.familymediationcouncil.org.uk/wp-content/uploads/2020/01/Family-Mediation-Survey-Autumn-2019-Results.pdf>

³ ALTERNATIVE DISPUTE RESOLUTION: MEDIATION AND CONCILIATION. (REPORT) LAW REFORM COMMISSION'S ROLE, 2010 // https://www.lawreform.ie/_fileupload/reports/r98adr.pdf

va nazorat qilishdan iborat. Tashkilot 1982-yildan beri jamoatchilikka inklyuziv mediativ xizmatlardan foydalanishda yordam berib kelmoqda⁴;

– professional oilaviy mediatorlarni tayyorlovchi The Academy of Professional Family Mediators (APFM) akademiyasi professional oilaviy mediatorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va oilaviy mediatorlik sohasini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Akademiya 12 nafar uzoq yillik oilaviy mediatorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mediatorlar guruhi tomonida 2011-yilda akademiyaning tashkil qilgan.

APFMning asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

– professional oilaviy mediatorlarning alohida identifikatorini yaratish;

– oilaviy mediatorlarning kasbiy mahorat darajasini oshirish va oilaviy mediatorlarni sertifikatlash tizimini rivojlantirish;

– oilaviy mediatsiya haqida jamoatchilikni xabardor qilish;

– oila mediatorlarini tayyorlash standartlarini mustahkamlash;

– oilaviy mediatorlarning kasbiy amaliyotini aks ettirish uchun “Mediatorlik amaliyoti standartlari”ni qayta ko‘rib chiqish⁵.

Association of Family and Conciliation Courts (AFCC) – 1963-yilda Kaliforniyada tashkil topgan oilaviy nizolarni hal qilish, yarashtirish bo‘yicha sudlari assotsiatsiyasidir⁶. AFCC a‘zolari oilaviy sudlar sohasidagi yetakchi amaliyotchilar, tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va siyosatchilardan iborat. AFCC oilaviy huquqiy munosabatlarda oilaviy mediatsiya amaliyotini rivojlantirish yo‘nalishida *Voyaga yetmaganlar va oilalar ishlari bo‘yicha sudyalarning milliy kengashi, Hofstra yuridik maktabi bolalarga yordam berish markazi, Oila va huquq markazi, Verner muzokaralar va nizolarni hal qilish instituti, Baltimor universiteti* kabi ko‘plab markazlar va institutlar bilan hamkorlik qiladi⁷.

AQShda hozirgi kunda quyidagi tashkilotlar va markazlar mediatorlarni tayyorlash bo‘yicha tasdiqlangan o‘quv kurslarini taqdim etadi:

– xalqaro ADR (Alternative Dispute Resolution) va ODR (Online Dispute Resolution) markazi;

– mediatorlarni o‘qitish bo‘yicha Ataraxia kompaniyasi;

– Oila mediatorlari assotsiatsiyasi (FMA);

– Lesli Allport nizolarni hal qilish markazi;

AFCC oilaviy huquqiy munosabatlarda oilaviy mediatsiya amaliyotini rivojlantirish yo‘nalishida Voyaga yetmaganlar va oilalar ishlari bo‘yicha sudyalarning milliy kengashi, Hofstra yuridik maktabi bolalarga yordam berish markazi, Oila va huquq markazi, Verner muzokaralar va nizolarni hal qilish instituti, Baltimor universiteti kabi ko‘plab markazlar va institutlar bilan hamkorlik qiladi.

⁴ “Ontario Association for Family Mediation (OAFM)” tashkilotining rasmiy veb-sahifasi // <https://www.oafm.on.ca/>

⁵ “Academy of Professional Family Mediators” tashkilotining rasmiy veb-sahifasi // <https://apfmnet.org/>

⁶ “Association of Family and Conciliation Courts (AFCC)” tashkilotining rasmiy veb-sahifasi // <https://www.afccnet.org/>

⁷ About AFCC // <https://www.afccnet.org/About/About-AFCC>

**Finlyandiyada
2006-yilda “Sud
mediatsiyasi
to‘g‘risida”gi
Qonun (663/2005)
kuchga kirgan.
Ushbu qonun
Norvegiya
va Daniyada
o‘tkazilgan
tajribalar asosida
Finlyandiyada sud
mediatsiyasini joriy
qildi.**

- Lorraine Bramwell Assotsiasi;
- Milliy oilaviy mediatsiyasi (NFM);

Finlyandiyada 2006-yilda “Sud mediatsiyasi to‘g‘risida”gi Qonun (663/2005) kuchga kirgan. Ushbu qonun Norvegiya va Daniyada o‘tkazilgan tajribalar asosida Finlyandiyada sud mediatsiyasini joriy qildi. Sud mediatsiyasi – bu taraflar uchun ixtiyoriy va sudya tomonidan amalga oshiriladigan, taraflarning o‘zlari o‘zlarining nizosini qoniqarli hal etishlarini ta‘minlashga qaratilgan jarayondir⁸.

Finlyandiyada oilaviy mediatsiyaning uchta turi mavjud: 1) *suddan tashqari mediatsiya*; 2) *mustaqil tartib sifatida sud mediatsiyasi* va 3) *bolaga vasiylik qilish yoki undan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi qarorni ijro etish doirasidagi mediatsiya*.

Suddan tashqari mediatsiya. “Nikoh to‘g‘risida”gi Qonunga (Marriage Act – 234/1929) ko‘ra⁹, oilada vujudga keladigan nizolar va huquqiy masalalar avvalo oila a‘zolari o‘rtasida muzokaralar yo‘li bilan hal etilishi va kelishuv asosida hal qilinishi kerak. Agar oila a‘zolari nizolarni hal qilishda tashqaridan yordamga muhtoj bo‘lsa, ular ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari tomonidan taqdim etilgan oilaviy mediatorlardan yordam so‘rashlari mumkin. Aksariyat hollarda bu vazifani bajarish uchun oilaviy mediatorlar, ijtimoiy xizmat xodimlari tayinladi. Mediatorning asosiy vazifasi ajrim bo‘layotgan taqdirda bolalarning huquqlarini himoya qilishdir. Mediator ota-onalarga farzandlari bilan bog‘liq har qanday muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga yordam beradi. Bunda oilaviy mediatsiya ixtiyoriy, sir saqlangan holda va bepul bo‘ladi. Oilaviy vositachilik xizmatlaridan butun oila yoki er-xotinlar birgalikda yoki alohida foydalanishlari mumkin.

Sud hamkorligida mediatsiya. Finlyandiyada sudlar vasiylik, uy-joy, bolalarni qo‘llab-quvvatlash huquqiy va moddiy yordam bilan bog‘liq masalalarda vositachilik qilishi mumkin (*“Fuqarolik ishlari bo‘yicha mediatsiya va umumiy sudlarda hal qilishni tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qonunning 10-bo‘limi, 394/2011*¹⁰). Mediatsiya taraflar sudga mediatsiya qilishni so‘ragan paytdan boshlanadi. Bundan tashqari, ishni allaqachon boshlangan sud muhokamasidan mediatsiyaga o‘tkazish mumkin. Mediatsiya har qanday bosqichda tugatilishi mumkin. Mediator odatda psixolog yoki ijtimoiy ishchi yordam beradigan sudyalardan bo‘lishadi.

⁸ Kaijus Ervasti. COURT MEDIATION IN FINLAND. National Research Institute of Legal Policy Helsinki, Research Report No. 256, 2011. // <https://helda.helsinki.fi/server/api/core/bitstreams/afd295cc-9504-4a84-9919-ac8c58c210eb/content>

⁹ Marriage Act of Finland (234/1929; amendments up to 1226/2001 included) // https://www.finlex.fi/fi/laki/kaannokset/1929/en19290234_20011226.pdf

¹⁰ Act on mediation in civil matters and confirmation of settlements in general courts (394/2011) // <https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/2011/en20110394.pdf>

Amalga oshirish jarayonining bir qismi sifatida mediatsiya. Mediatsiyaning ushbu shakli faqat ota-onalardan birining tuman sudiga ijroni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan murojaat bilan chiqishida qo'llanadi. Bunday holda, sud qarori allaqachon mavjud, ammo u ikkinchi ota-ona tomonidan bajarilmayotgan bo'ladi. Bunda sud muammoni hal qilishda mediator tayinlaydi. Shahar ijtimoiy ta'minot kengashlari oilaviy mediatsiyani tashkil etish uchun mas'uldir¹¹.

Fransiyada oilaviy mediatsiya qonuniy ravishda tan olingan bo'lib, davlat tomonidan rag'batlantiriladi va keng qo'llanadi. Fransiyada mediatsiya Fuqarolik Kodeksida nizolarni hal qilishda muqobil usul sifatida tavsiya etiladi. Fransuz oilaviy mediator – bu davlat tomonidan diplomlashtirilgan professional bo'lishi lozim (*Oila mediatorining davlat diplomini*). Oilaviy mediatsiya Fuqarolik kodeksiga 2002-yil 4-martdagi “Ota-ona huquqlari to'g'risida”gi Qonun bilan, so'ngra 2004-yil 26-maydagi “Nikohdan ajralish to'g'risida”gi Qonun bilan kiritilgan¹².

Ma'muriy va yuridik organlar xalqaro oilaviy nizolarni hal qilish uchun xalqaro oilaviy mediatsiyani rag'batlantiradi. Adliya vazirligining *O'zaro yordam, xalqaro xususiy va Yevropa huquqi bo'limi* xalqaro oilaviy mediatorlar ro'yxatini shakllantiradi. Oilaviy masalalarda, ota-onalik vakolatlarini amalga oshirishning muayyan sohalarida yoki ajrashish to'g'risidagi ish bo'yicha vaqtinchalik choralarda, sud tomonlarni mediatsiya brifingida ishtirok etishni ham tayinlashi mumkin, bu bepul va hech qanday jazoga olib kelmaydi (*FKning 255 va 373-2-10-moddalari*).

1988-yilda faollar APMF (Association Pour la Médiation Familiale) – Oilaviy mediatsiya assotsiatsiyasini tashkil etishadi hamda oilaviy mediatsiyaning axloqiy amaliyoti uchun birinchi axloq kodeksini (1990), so'ngra o'qitish uchun asosni (1992) ishlab chiqdilar va ushbu amaliyot davlat organlari, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilik tomonidan tarqatilishini ta'minladilar. Oilaviy mediatsiya assotsiatsiyasi (APMF) Fransiyada ishlaydigan oilaviy mediatorlar ro'yxatini va a'zo bo'lgan oilaviy mediatsiya xizmatlari ro'yxatini taqdim etadi¹³.

Assotsiatsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

– *oilaviy mediatsiya amaliyotida odob-axloq qoidalarini va uning axloq kodeksida belgilangan oilaviy mediatsiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy shart-sharoitlarni o'rnatish va tasdiqlash;*

Ma'muriy va yuridik organlar xalqaro oilaviy nizolarni hal qilish uchun xalqaro oilaviy mediatsiyani rag'batlantiradi. Adliya vazirligining O'zaro yordam, xalqaro xususiy va Yevropa huquqi bo'limi xalqaro oilaviy mediatorlar ro'yxatini shakllantiradi.

¹¹ Family mediation. Finland. – An official website of the European Union // https://e-justice.europa.eu/372/EN/family_mediation?FINLAND&member=1

¹² International Family Mediation // <https://www.ifm-mfi.org/en/france#:~:text=Family%20mediation%2C%20in%20France%2C%20is.Diploma%20of%20the%20family%20mediator>

¹³ LA MÉDIATION FAMILIALE // <https://www.apmf.fr/la-mediation-familiale/de-quoi-sagit-il/>

2002-yil mart oyida “Ota-ona huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish uchun o‘sha paytdagi Oila ishlari vaziri Segolen Royal Oila mediatsiyasi bo‘yicha Milliy maslahat kengashini tuzadi, uning birinchi vazifasi oilaviy mediatsiyani aniqlash va bu o‘ziga xos oilaviy mediatorlik qanday amalga oshirilishini tushuntirish edi

– amaliyot, tadqiqot va o‘qitishga qaratilgan barcha tadbirlarni tashkillashtirish;

– oilaviy mediatorlik funksiyasini professionallashtirish.

2002-yil mart oyida “Ota-ona huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rish uchun o‘sha paytdagi *Oila ishlari vaziri Segolen Royal* Oila mediatsiyasi bo‘yicha Milliy maslahat kengashini tuzadi, uning birinchi vazifasi oilaviy mediatsiyani aniqlash va bu o‘ziga xos oilaviy mediatorlik qanday amalga oshirilishini tushuntirish edi¹⁴.

Fenamef (La Fédération Nationale de la Médiation et des Espaces Familiaux) notijorat uyushmasi bo‘lib, butun Fransiya bo‘ylab 500 dan ortiq mediatsiya markazlarini, xususan, oilaviy mediatsiya xizmatlari, oila va uchrashuv joylari, o‘quv markazlari, ota-onalarning birgalikdagi seminarlari, avlodlararo mediator markazlari, keksalik holatlarida oilaviy mediatsiya, maktab mediatsiyasi va boshqalarni birlashtiradi. Fenamef *Roger Leconte* boshchiligida 1991-yilda Kann shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi Yevropa oilaviy mediatsiya kongressidan so‘ng “Oilaviy mediatsiya va xizmatlar assotsiatsiyalari milliy qo‘mitasi” nomi ostida tashkil etilgan¹⁵. Fenamef oilaviy rishtalarni qo‘llab-quvvatlash, saqlash yoki tiklash, mediatsiyani rivojlantirish va uning ishtirokchilarini professionallashtirishga hissa qo‘shishga intiladi.

Fransiyada oilaviy mediatsiya 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Axborot intervyusi – uning davomida oila mediatorlari oila muhokama qilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar va mavzular bilan tanishtiradi. Oila a‘zolari oilaviy mediatsiyada ishtirok etish yoki etmaslikni tanlashi mumkin. Bu ixtiyoriy.

2. Oilaviy mediatsiya suhbatlari – davomiyligi, taxminan, 1 soat 30 daqiqadan 2 soatgacha 3 oydan 6 oygacha o‘tkaziladi. Suhbatlar soni vaziyatga va muhokama qilmoqchi bo‘lgan mavzularga qarab o‘zgaradi. Ko‘pincha 6 suhbat bilan cheklanadi. Ba’zi hollarda suhbat masofadan turib o‘tkazilishi mumkin.

3. Sud tomonidan mediatsiya kelishuvining tasdiqlanishi – agar oila rozi bo‘lsa, sud uni tasdiqlashi mumkin. Ushbu kelishuv sud qarori bilan bir xil kuchga ega bo‘ladi. Agar oila mediatsiya yakunida kelishuvga erisha olmasa, ish sudga topshiriladi¹⁶.

¹⁴ “Association Pour la Médiation Familiale” tashkilotining rasmiy veb-sahifasi // <https://www.apmf.fr/wp-content/uploads/2017/02/D%C3%A9finition-APMF-de-la-M%C3%A9diation-familiale-VD-19.10.2016.pdf>

¹⁵ Qu’est-ce que la médiation familiale? FENAMEF// <https://www.fenamef.asso.fr/mediation-familiale/quest-ce-que-la-mediation-familiale/>

¹⁶ Qu’est-ce que la médiation familiale? République Française // <https://www.service-public.fr/particuliers/vosdroits/F34355?lang=en>

Germaniyada mediatsiya adliya tizimiga uyg'un tarzda kiritilgan. Masalan, mediatorlar bevosita sudlar bilan hamkorlik qiladi, bu esa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sud jarayonlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bugungi kunda mediatsiya Germaniya sudlariga nafaqat oilaviy ishlar, balki umumiy yurisdiksiya sudlari, ma'muriy sudlar va boshqalarda ham kiritilgan. Aksariyat nemis yuridik maktablarida to'liq kunlik mediatsiya kursi joriy qilingan, ya'ni huquqshunoslik fakultetini bitirgan har bir kishi mediatsiya kursini o'taydi. Germaniyada ajralgan yoki ajralishni boshdan kechirayotgan er-xotinlar ko'pincha oilaviy munosabatlarni tinch yo'l bilan hal qilishni xohlashadi. Mamlakatda mediatsiyaning huquqiy asosi 2012-yil 26-iyulda kuchga kirgan "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun (Mediationsgesetz) bilan yaratilgan¹⁷.

Ajrashish to'g'risidagi ish yuritish doirasida sud er-xotindan yakka tartibda yoki birgalikda bir shaxsning yordami bilan hal etilmagan masalalar bo'yicha nizolarni suddan tashqari hal etishning boshqa shakllari bo'yicha mediatsiya bo'yicha bepul ma'lumot yig'ilishida qatnashishni talab qilishi mumkin yoki sud tomonidan tayinlangan organ va ularning ishtiroki to'g'risida dalillarni taqdim etadi (135 Oilaviy masalalar va tortishuvsiz yurisdiksiya masalalari bo'yicha protsedura to'g'risidagi qonun - Gesetz über das Verfahren in Familiensachen und in den Angelegenheiten der freiwilligen Gerichtsbarkeit, FamFG)¹⁸.

MEDIATION eV Federal assotsiatsiyasi 1992-yil may oyida tashkil etilgan va Germaniyadagi birinchi mediatorlik uyushmalaridan biriga aylangan. Uyushma asoschilari Germaniyada ko'p yillardan buyon mediatsiya bilan faoliyat olib boradigan insonlardir.

Germaniyadagi Network of Cross-border Family Mediators – Transchegaraviy oilaviy mediatsiya tarmog'i 40 mamlakatdan 206 ta madaniyatlararo oilaviy mediatorlardan iborat faol hamjamiyatdir. Transchegaraviy oilaviy mediatorlar tarmog'i 2012-yilda ishga tushirilgan bo'lib, u ikkita yirik NNT: Belgiyadan *Child Focus* va Germaniyadan *Mediation bei Internationalen Kindschaftskonflikten (MiKK)* tomonidan birgalikda yaratilgan.

MiKK – (The International Mediation Centre for Family Conflict and Child Abduction) xalqaro miqyosda tan olingan mustaqil nodavlat tashkilot bo'lib, 20 yildan buyon ota-onalar va manfaatdor tomonlarga transchegaraviy oilaviy mediatsiya va xalqaro mediatsiya treninglari bo'yicha o'z kurslarini taqdim etadi. To'liq 50 soatlik CBFM kurslari

Germaniyada mediatsiya adliya tizimiga uyg'un tarzda kiritilgan. Masalan, mediatorlar bevosita sudlar bilan hamkorlik qiladi, bu esa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sud jarayonlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bugungi kunda mediatsiya Germaniya sudlariga nafaqat oilaviy ishlar, balki umumiy yurisdiksiya sudlari, ma'muriy sudlar va boshqalarda ham kiritilgan.

¹⁷ Mediationsgesetz (MediationsG) // <https://www.gesetze-im-internet.de/mediationsg/BJNR157710012.html>

¹⁸ Family mediation. Germany. – An official website of the European Union // https://e-justice.europa.eu/372/EN/family_mediation?GERMANY&member=1

**Avstraliyada
oilaviy nizolarni
hal qilish uchun
mediatsiyadan
foydalanish so'nggi
20-30 yil ichida
sezilarli darajada
oshgan. 2006-yilda
1975-yilda
qabul qilingan
Oila huquqi
to'g'risidagi qonun
islohotidan keyin
oilaviy nizolarni
hal qilishda
oilaviy mediatorlik
ota-onalarning
ajralishidan
keyingi oilaviy
nizolarni hal
qilishda majburiy
birinchi qadam
bo'ldi.**

har yili Berlinda ingliz va nemis tillarida, xalqaro miqyosda esa Yaponiya va Singapurda o'tkaziladi. Muntazam ravishda MiKK mediatorlari uchun doimiy kurslar, treninglar va vebinarlar o'tkaziladi. 2004-yildan beri MiKK 20 dan ortiq mamlakatlarda manfaatdor tomonlar uchun seminar va treninglar o'tkazib kelmoqda¹⁹.

International Mediation Campus (IM Campus) mediatsiya uchun sertifikatlangan onlayn treningi bo'lib, o'zida 40 soatlik onlayn sessiyalar 12 hafta davomida jonli yoki 1 hafta intensiv mashg'ulotlardan iborat bo'ladi. Asosan, mediatsiya, muzokaralar hamda nizolarni muqobil hal qilish tizimlarini qamrab oladi. Trening xalqaro standartlarga javob beradi va Xalqaro mediatsiya instituti (IMI) va Xalqaro menejment maktabi (ISM) tomonidan sertifikatlangan²⁰.

Avstraliyada oilaviy nizolarni hal qilish uchun mediatsiyadan foydalanish so'nggi 20-30 yil ichida sezilarli darajada oshgan. 2006-yilda 1975-yilda qabul qilingan Oila huquqi to'g'risidagi qonun islohotidan keyin oilaviy nizolarni hal qilishda oilaviy mediatorlik ota-onalarning ajralishidan keyingi oilaviy nizolarni hal qilishda majburiy birinchi qadam bo'ldi²¹. Oilaviy mediatsiya hozirda Avstraliyada ajralishdan keyingi oilaviy nizolarni hal qilishda qo'llanadigan asosiy tizim hisoblanadi.

Avstraliyadagi oilaviy huquq tizimi ajralgan ota-onalarni oilaviy sud tizimidan o'tmasdan mustaqil ravishda birgalikda bolani tarbiyalash tartibini ishlab chiqishga undaydi. Sudga arizalar faqat nizolarni o'zaro hal qilisha olmasa yoki Oilaviy nizolarni hal qilish (FDR) orqali kelishuvga erishilmasa beriladi. Bu qoida ba'zi istisnolardan tashqari, jumladan, oiladagi zo'ravonlik va bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarida, tomonlardan biri ota-onalik majburiyatini o'rnatishda sudga murojat qilishlari uchun s60i sertifikati olishlari kerak²². Ushbu sertifikat o'zlarining oilaviy nizolarini oila ichida samimiy hal qilishga urinishlarini tasdiqlaydi.

Avstraliya Oila sudi mediatsiyani moliyaviy va ota-onalikka oid nizolarni hal qilish shakli sifatida belgilaydi. Ular sud zalidan tashqarida bo'lib o'tadi va nizo tomonlarini, shuningdek, xolis uchinchi tomonni jalb qiladi. Agar g'ayrioddiy holatlar yuzaga kelmasa, ajralish bilan bog'liq masalalarda FDR tomonidan mediatorlik qilinadi.

¹⁹ Cross-Border Family Mediation (CBFM) Training in English in Berlin // https://mikk-ev.org/registration-for-training/?gclid=Cj0KCQiAtaOtBhCwARIsAN_x-3KKWWTNiI2O7hX_QoCyrNM0eMMY2rDWpDsgpomcviONScDDsLDa3y0aAsbqEALw_wcB

²⁰ Международные эксперты по обучению и сертификации в области онлайн-медиации // <https://im-campus.com/ru/about-us/#certifications>

²¹ Family Law Act 1975. No. 53, 1975 Federal Register of Legislation of Australia // <https://www.legislation.gov.au/C2004A00275/2019-03-10/text>

²² Section 60I Certificate // <https://relationshipmatters.com.au/services/certificates-60is/>

Avstraliyada oilaviy mediatsiyasining ikki turi farqlanadi:

– muammolarga yechim topish oilaviy mediatsiyasi – Avstraliyada oilaviy mediatsiyada eng ko‘p qo‘llaniladigan usulidir. Ushbu usulning diqqat markazida avtonomiya prinsipi yotadi. Maqsad – ajrashmoqchi bo‘lgan taraflar o‘rtasida muloqot qilish va qarorlarni o‘zlari qabul qilish orqali kelishuvga erishishdir. Oilaviy mediator qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Ularning asosiy vazifasi barcha bahsli masalalarni aniqlash va tomonlarga muammolarga oqilona yechim topishga yordam berishdir.

– baholovchi oilaviy mediatsiya – bu orqali ajrashayotgan er-xotin o‘rtasida tez va adolatli kelishuvni ta’minlashga yordam beraladi. Baholovchi oilaviy vositachilik usulidan foydalanadigan mediatorlar odatda katta tajribaga ega bo‘lgan yuristlardir. Ular har bir tomonning so‘rovlarining qonuniy asosligini izlaydilar va keyin ikkala tomonga adolatli variant haqida o‘z fikrlarini bildiradilar²³.

Avstraliya Arbitrlar va Mediatorlar Instituti (IAMA) arbitraj, mediatsiya va ADRning boshqa shakllari orqali nizolarni hal qilishni targ‘ib qiluvchi va qo‘llab-quvvatlovchi milliy professional guruhdir. U butun Avstraliya bo‘ylab ishlaydi, a‘zolari barcha shtatlar va hududlarda, shuningdek xorijda vakillik qilishadi.

Avstraliya Oila tadqiqotlari instituti (AIFS) avstraliyalik oilaviy tadqiqotlar orqali haqiqiy hayot sharoitlarini tushunishga bag‘ishlangan.

Nizolarni hal qilish bo‘yicha Milliy muqobil maslahat kengashi (NADRAC) shuningdek, Avstraliyada nizolarni hal qilish uchun umumiy shartlar to‘plamini o‘rnatishga intiladi, Bosh prokurorga ADRni rivojlantirish bo‘yicha ekspert maslahatlarini beradi va fanlararo nizolarni hal qilish usullaridan foydalanishni rag‘batlantiradi.

Bundan tashqari, G‘arbiy Sidney hamjamiyatining yuridik markazi va MacArthur yuridik markazi bilan birgalikda *Parramatta* va *Sidneydagi* mijozlar uchun onlayn video orqali masofadan turib qonuniy qo‘llab-quvvatlanadigan mediatorlikni ta’minlash uchun Uniting Consulting va Yangi Zelandiya Mediatsiya tashkilotlari bilan aloqalarini kengaytirdi²⁴.

Yakuniy qism. Oilaviy nizolarni sudgacha hal qilishda oilaviy mediatsiya institutini qo‘llash bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni bildiramiz:

Avstraliya Arbitrlar va Mediatorlar Instituti (IAMA) arbitraj, mediatsiya va ADRning boshqa shakllari orqali nizolarni hal qilishni targ‘ib qiluvchi va qo‘llab-quvvatlovchi milliy professional guruhdir. U butun Avstraliya bo‘ylab ishlaydi, a‘zolari barcha shtatlar va hududlarda, shuningdek xorijda vakillik qilishadi.

²³ Allegra Family Lawyers. Legal Advice for Divorce, Mediation & Family Matters // https://allegralawyers.com.au/?utm_term=divorce%20lawyer&utm_campaign=General&utm_source=adwords&utm_medium

²⁴ Mediation as an Alternative Mechanism to Resolve Family Disputes in Malaysia: A Comparative Analysis with Australia and New Zealand. December 2022. Intellectual Discourse 30(2). DOI: 10.31436/id.v30i2.1818 // https://www.researchgate.net/publication/366820844_Mediation_as_an_Alternative_Mechanism_to_Resolve_Family_Disputes_in_Malaysia_A_Comparative_Analysis_with_Australia_and_New_Zealand

1. Oilaviy mediatsiya bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ularning maxsus yo'nalishdagi faoliyatini rag'batlantirish (*AQSh tajribasi asosida*).

2. Oilaviy mediatsiya to'g'risida aholining xabardorligini oshirish maqsadida targ'ibot kampaniyalarini o'tkazish, OAV, Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ta'sirchan ijtimoiy rolklar, infografikalar, informatsion animatsiyalar va boshqa targ'ibot materiallarini keng tarqatish.

3. Tajriba tariqasida oilaviy sudyalari faoliyat yurituvchi sudlarda sud mediatsiyasini tashkil etish (*Finlandiya tajribasi asosida*).

4. Xalqaro darajadagi yoki turli davlatlar fuqarolari o'rtasida yuzaga keladigan oilaviy huquqiy munosabatlarda mediatsiyani qo'llash bo'yicha mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish.

5. Yuridik yo'nalishdagi ta'lim muassasalari, xususan oliy va professional ta'lim muassasalarida o'quv dasturlariga majburiy mediatsiya kursini kiritish orqali har bir bitiruvchining professional mediator bo'lishiga erishish (*Germaniya tajribasi asosida*).

6. Tajriba tariqasida oila mediatsiyasi bo'yicha uzoq yillik malaka va tajribaga ega bo'lgan professional mediatorlar ishtirokida masofaviy (onlayn) shaklda mediativ ishlarni ko'rish amaliyotini joriy etish (*Avstraliya tajribasi asosida*).

7. Har bir mahalla binosida mazkur mahallada tegishli bo'lgan hududdagi oilaviy nizolar bilan shug'ullanuvchi mediatorlar ro'yxatini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *A Timeline of Events in Modern American Labor Relations*// <https://www.fmcs.gov/aboutus/our-history/>
2. *Family Mediation Survey 2019 - Results* // <https://www.familymediationcouncil.org.uk/wp-content/uploads/2020/01/Family-Mediation-Survey-Autumn-2019-Results.pdf>
3. *ALTERNATIVE DISPUTE RESOLUTION: MEDIATION AND CONCILIATION. (REPORT) LAW REFORM COMMISSION'S ROLE, 2010* // https://www.lawreform.ie/_fileupload/reports/r98adr.pdf
4. "Ontario Association for Family Mediation (OAFM)" tashkilotining rasmiy veb-sahifasi // <https://www.oafm.on.ca/>
5. "Academy of Professional Family Mediators" tashkilotining rasmiy veb-sahifasi // <https://apfmnet.org/>
6. "Association of Family and Conciliation Courts (AFCC)" tashkilotining rasmiy veb-sahifasi // <https://www.afccnet.org/>
7. *About AFCC* // <https://www.afccnet.org/About/About-AFCC>
8. *Kaijus Ervasti. COURT MEDIATION IN FINLAND. National Research Institute of Legal Policy Helsinki, Research Report No. 256, 2011.* // <https://helda.helsinki.fi/server/api/core/bitstreams/afd295cc-9504-4a84-9919-ac8c58c210eb/content>

9. *Marriage Act of Finland (234/1929; amendments up to 1226/2001 included)* // https://www.finlex.fi/fi/laki/kaannokset/1929/en19290234_20011226.pdf
10. *Act on mediation in civil matters and confirmation of settlements in general courts (394/2011)* // <https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/2011/en20110394.pdf>
11. *Family mediation. Finland. – An official website of the European Union* // https://e-justice.europa.eu/372/EN/family_mediation?FINLAND&member=1
12. *International Family Mediation* // <https://www.ifm-mfi.org/en/france#:~:text=Family%20mediation%2C%20in%20France%2C%20is,Diploma%20of%20the%20family%20mediator>
13. *LA MÉDIATION FAMILIALE* // <https://www.apmf.fr/la-mediation-familiale/de-quoi-sagit-il/>
14. “Association Pour la Médiation Familiale” *tashkilotining rasmiy veb-sahifasi* // <https://www.apmf.fr/wp-content/uploads/2017/02/D%C3%A9finition-APMF-de-la-M%C3%A9diation-familiale-VD-19.10.2016.pdf>
15. *Qu’est-ce que la médiation familiale? FENAMEF* // <https://www.fenamedf.asso.fr/mediation-familiale/quest-ce-que-la-mediation-familiale/>
16. *Qu’est-ce que la médiation familiale? République Française* // <https://www.service-public.fr/particuliers/vosdroits/F34355?lang=en>
17. *Mediationsgesetz (MediationsG)* // <https://www.gesetze-im-internet.de/mediationsg/BJNR157710012.html>
18. *Family mediation. Germany. – An official website of the European Union* // https://e-justice.europa.eu/372/EN/family_mediation?GERMANY&member=1
19. *Cross-Border Family Mediation (CBFM) Training in English in Berlin* // https://mikk-ev.org/registration-for-training/?gclid=Cj0KCQiAtaOtBhCwARIsAN_x-3KKWWTNII2O7hX_QoCyrNM0eMMY2rDWpDsgpomcviONScDDsLDa3y0aAsbqEALw_wcB
20. *Международные эксперты по обучению и сертификации в области онлайн-медиации* // <https://im-campus.com/ru/about-us/#certifications>
21. *Family Law Act 1975. No. 53, 1975 Federal Register of Legislation of Australia* // <https://www.legislation.gov.au/C2004A00275/2019-03-10/text>
22. *Section 60I Certificate* // <https://relationshipmatters.com.au/services/certificates-60is/>
23. *Allegra Family Lawyers. Legal Advice for Divorce, Mediation & Family Matters* // https://allegralawyers.com.au/?utm_term=divorce%20lawyer&utm_campaign=General&utm_source=adwords&utm_medium
24. *Mediation as an Alternative Mechanism to Resolve Family Disputes in Malaysia: A Comparative Analysis with Australia and New Zealand. December 2022. Intellectual Discourse 30(2). DOI: 10.31436/id.v30i2.1818* // https://www.researchgate.net/publication/366820844_Mediation_as_an_Alternative_Mechanism_to_Resolve_Family_Disputes_in_Malaysia_A_Comparative_Analysis_with_Australia_and_New_Zealand